

**Aziza MIRZAYEVA,**

*Buxoro Davlat universiteti doktoranti, BDTI ingliz tili kafedrasida o'qituvchisi*

*E-mail: azizamirzayeva539@gmail.com*

*Buxoro Davlat universiteti dotsent, f.f.d F.Hojiyeva taqrizi asosida*

## **RIK RIORDAN ASARLARI VA ANTIK MIFOLOGIYA ORASIDAGI GIPERTEKSTUAL ALOQADORLIK (PASTISH VA SYUJETLARDAGI UNIVERSALLIK)**

Аннотация

Ushbu maqolada gipertekstuallik matnlarning boshqa matnlar bilan bog'liqligini anglatuvchi murakkab va ko'p qirrali tushuncha sifatida muhokama qilinadi. Bundan tashqari Amerika o'smirlar yozuvchisi Rik Riordan pentalogiyasida gipertekstuallikning bir ko'rinishi bo'lmish pastishga xos bo'lgan holatlarni tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Gipertekst, gipotekst, pastish, remifologizatsiya, mifologizatsiya, demifologizatsiya.

## **ГИПЕРТЕКСТОВАЯ СВЯЗЬ ПРОИЗВЕДЕНИЙ РИКА РИОРДАНА И АНТИЧНОЙ МИФОЛОГИИ (УНИВЕРСАЛЬНОСТЬ В СТИЛИСТИКЕ И СЮЖЕТАХ)**

Аннотация

В этой статье гипертекстуальность рассматривается как сложное и многогранное понятие, которое относится к взаимосвязи текстов с другими текстами. Кроме того, случаи, типичные для пастича, которая является формой гипертекстуальности, анализируются в пенталогии американского писателя Рика Риордана.

**Ключевые слова:** Гипертекст, гипотекст, пастич, ремифологизация, мифологизация, демифологизация.

## **HYPERTEXTUAL RELATIONSHIP BETWEEN THE WORKS OF RICK RIORDAN AND ANCIENT MYTHOLOGY (UNIVERSALITY IN PASTICHE AND PLOT)**

Annotation

This article discusses hypertextuality as a complex and multifaceted concept that refers to the relationship of texts to other texts. In addition, the cases typical of pastiche, which is a form of hypertextuality, are analyzed in the pentalogy of the American teenage writer Rick Riordan.

**Key words:** Hypertextuality, hypertext, pastiche, remythologization, mythologization, demythologization

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Gipertekstuallik – transtekstuallikning bir ko'rinishi, unda muayyan adabiy matn boshqa bir matn bilan birbutun holda yoki global, ulkan madaniy kontekst bilan bog'lanadi. Gipertekstuallik faqat adabiyotgagina xos hodisa emas, u umuman ilmiy, publitsistik, falsafiy va boshqa xil matnlarga ham xosdir. Gipertekstuallik, ayniqsa, internet paydo bo'lgandan so'ng nihoyatda ommalashdi. Gipertekstuallik muammosiga milliy adabiyotshunoslikda birinchilardan bo'lib diqqat qaratgan adabiyotshunos Feruza Xajieva ushbu tushunchani shunday izohlaydi: “Gipertekst (yunoncha hyper – ustida, juda degan ma'nolarni anglatadi) termini ostida ikkilamchi matn nazarda tutilgan bo'lib, u birlamchi matn, ya'ni gipotekstdan so'ng yozilgan yoki birlamchi matn ustidan yozilgan bo'lib, unga turli ko'rinishdagi aloqalar yordamida (pastish, parodiya, transformatsiya, taqlid) bog'langan. Gipertekst gipotekstga izoh, sharh bermaydi. Turli ko'rinishdagi adaptatsiyalar (pastish, parodiya, transformatsiya, taqlid) natijasida yangi matnni hosil qiladi. Jerard Jenet gipertekstga misol qilib Jeyms Joysning “Uliss” asarini ko'rsatadi. Chunki Joys Gomerning “Odyssey” eposiga taqlid qilib, unga o'xshash uslubda o'zining asarini yaratgan”.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Gipertekstuallik, olimlarning fikricha, bir matnni boshqa matnga havola qilish orqali alohida matnlarni bog'lash natijasi emas, balki o'ziga xos xususiyatlarga ega mustaqil ob'ekt bo'lib, uning alohida qismlarining bir-biriga nisbati muhim ahamiyatga ega. Gipermatn barcha tarmoq matnlari uchun umumiy xususiyatga ega – bitta matn tuzilmasi chegarasidan tashqariga chiqadi, shuning uchun matn aslida ko'lami, janri va hatto muallifligi bilan cheklangan statik tizim bo'lishni to'xtatadi. Interaktivlik, nohiziqilik, multimedialik kabi matn kategoriyalari gipermatnni tashkil qiladi. Bular muallif rolining o'zgarishiga olib keladi. Natijada asarning kompozitsiyasi, boshi va oxiri yo'qolib, muallif mustaqilligi shartli bo'lib qoladi. Ammo gipermatnlilikda matnlararo o'tishlarni, matnga tovush, video, animatsiyani kiritishni ko'rish mumkin. Bularning barchasi o'quvchida g'ayrioddiy hissiy in'ikoslarni keltirib chiqaradi, bu esa fikrlash tarzi va dunyoni idrok etishning o'zgarishiga olib keladi.

Aytish mumkinki, bizning tadqiqotimizda Rik Riordan pentalogiyasiga kirgan romanlar gipertekst bo'lsa, Rim va yunon mifologiyasi gipotekst hisoblanadi. Gipertekst termini ilk bor amerikalik faylasuf va ijtimoiyotshunos Ted Nelson tomonidan 1965 yilda ishlatilgan.

XX asr ikkinchi yarmidan boshlab jahon nasrida qadimiy miflarga qiziqish kuchaydi. Chunki qadimgi miflar, jumladan, yunon mifologiyasida ikki avlod o'rtasidagi kurash (Kronos va Zevs misolida), ya'ni eskining o'rniga yangining chiqishi motivi o'z ifodasini topganki, postmodernizm ham o'zidan ilgari barcha oqimlaru tendensiyalarni inkor etib, butunlay yangi madaniy kontekst yaratishni nazarda tutar edi. Go'zallik, Olimp dunyosidagi qat'iy tartib va uyg'unlik zamonaviy adiblarni o'ziga maftun etadi; zamondosh yozuvchilar qadimiy miflarning butunlay yangi talqinlarini yaratadilar.

Rik Riordan o'zining yosh kitobxon-muxlislari uchun yunon mifologiyasidagi qiziqarlilikni, syujetning tez rivojlanishini asos qilib olarkan, mifologik qahramonlar hayotidagi kurash va g'alaba, insoniylik va do'stlik, xavf-xatar va jasorat kabilarni zamonaviy amerikalik bolalar hayoti bilan uyg'unlashtiradi.

**Tahlil va natijalar.** Ta'kidlash lozimki, asarda g'ayritabiiy mavjudotlar va qahramonlarni shunchaki yo'l-yo'lakay eslatib o'tish miflarni badiiy interpretatsiya qilishning muhim belgisi bo'la olmaydi. Chunki bunda nomlar, tasvirlar juda keng ko'lamlil bo'lishi mumkin, ammo u badiiy individual adabiyotdagi mifologizmning asosiy etaloni bo'la olmaydi. Mifologizm qadimiy voqelikni zamonaviy okntekstda qaytadan, ayni vaqtda yangicha, individual idrok etish va tasvirlashdir. Bunda qadimiy miflar xotira, tashqi shakl tarzidagina ishtirok etadi. Mazmun-mohiyat esa zamonaviy inson dunyosiga oid voqeliklar, ijodkor shaxsning borliqni individual idrok etishi bilan to'yintiriladi.

Angliyalik yozuvchi Jeyms Uayt badiiy mifologizmning olti tipini ko'rsatib o'tgan:

Yangi mif yaratish, uni mifologiyaga xos bo'lmagan mazmun va ramzlar bilan to'ldirish.

Asarda qadimiy borliq mohiyatini ochib beradigan, nomlar va makonning g'ayrioddiy tanosubiyati yoki personajlarning ikkilanishi, evrilishi tufayli sabab-oqibat munosabatlarining buzilishi bois ko'pincha idrok etish qiyin bo'lgan, mifologik tafakkurning teranligini aks ettirish.

Zamonaviy hikoya sathiga qadimiy mifologik syujetlarni kiritish.

Syujetga mifologik personajlarni ularni o'zgacha ma'no va ramziylik yuklagan holda kiritish.

Inson ongining mifologik ko'zqarash hozirgacha yashab kelayotgan qavatlariga murojaat qilish.

Inson hayotining masal elementlari bilan uyg'un uy, yo'l, o'choq, bolalik, keksalik, muhabbat, kasallik singari doimiy unsurlariga murojaat qilish.

Miflarga xos bo'lgan voqelikni yorqin va haqqoniy gavdalantirish xususiyati zamonaviy fentezi janrining yuzaga kelishi uchun zamin bo'lib xizmat qildi. Bugun jahondagi ko'pgina yozuvchilar uydirma voqelik, boshqacha aytganda, o'zlarining ikkinchi dunyolarini yaratishda mifologiyaga tayanadilar. Bu tayanish aniq obrazlar, voqealar, zamon va makon ko'rinishida ochiq ham, yoki motivlar tarzida o'zgartirilgan, matn ostida ham bo'lishi mumkin.

Fentezi janrida samarali ijod qilgan amerikalik adib Rik Riordan ijodida ham syujet ko'pincha antik dunyo mifologik voqeligi bilan qattiq chatishib ketadi. Bunda zamonaviy adabiyotdagi badiiy mifologizmga xos bo'lgan uch holatni ko'rish mumkin: remifologizatsiya va mifologizatsiya hamda (adabiy asar badiiy makonini shakllantirish uchun mifologik syujet va motivlardan foydalanish), demifologizatsiya (diniy asotirlar interpretatsiyasi). Rik Riordan asarlarida badiiy mifologizm ob'ekti sifatida badiiy asar yaratish jarayonida turli o'zgarishlarga uchragan syujetlar yoki qahramonlardan foydalaniladi. Ularni mifologik epizodlar, mifologik qahramonlar, mifologik makonlar va sehrli jismlar tarzida guruhlashtirish mumkin. Bularning bari transtekstuallik, gipertekstuallik sifatida voqelanib, pastishni yuzaga keltirishga xizmat qiladi.

Pastish – gipertekstuallikning ko'rinishlaridan biri. Pastish – fransuzcha (pastiche) va italyanchadan (pasticcio) olingan so'z bo'lib (aralashma, pashtet), aslida opera san'atiga nisbatan ishlatiladi. Ya'ni popurri tarzida bir necha operalarning bo'laklaridan yaxlitlashtirib tarkib toptirilgan mozaikaviy opera asaridir. Istiloh keyinchalik badiiy adabiyotga ham tadbqiqilingan. Pastish, ayniqsa, postmodernizmning mozaikaviylik xususiga nihoyatga muvofiq keladi. Bunda qahramonlar, epizodlar, motivlar, narsalar, makonlar miflardan olinadiyu, lekin ularning hammasi o'zgarishlarga uchragan holda ishtirok etadi. Obrazli qilib aytganda, o'sha narsa-hodisa bir vaqtning o'zida ham o'sha narsa-hodisa, ham o'sha narsa-hodisa bo'lmay qoladi. Bundan tashqari turli miflarning bo'laklari bir joyda jamlanishi ham mumkin.

Pastish umumiy ta'rif beriladigan bo'lsa, bir yoki bir necha asarlar uslubiga taqlidan yaratilgan asar, stilizatsiyadir. Pastishda yozuvchi biror asarning kompozitsion tuzilishi, strukturasi, syujet yoki qahramonlarini asos qilib oladi. Masalan, Sherlok Xolms yoki unga o'xshagan obrazlar asos qilib olingan asarlar Artur Konan Doyl tirikligidayoq paydo bo'la boshlagan.

Rik Riordan Persi Jekson sarguzashtlariga bag'ishlangan romanlari markaziga Kronos va Olimp xudolari o'rtasidagi ziddiyat haqidagi mifni asos qilib oladi. Boshqacha aytganda, Rik Riordan pentalogiyasi yaxlit holda yunon mifologiyasiga pastish qilingandir.

Pentalogiyaning ilk romani "Chaqqoq o'g'risi"da mifologik qahramonlar bo'lmish Persey va Teseyning jasorati aks etgan. Rik Riordan qahramoni Persiga ham mifologiyadagi Persey singari Meduza Gorgona bilan to'qnashishga to'g'ri keladi. Persi Meduza – Em xolani avvaliga oddiygina kampirsho deb o'ylaydi, unga rahmi keladi. Annabet va Grouver uning kimligini bilib qolib, Em xolaning do'konidan ketmoqchi bo'lsalar ham, Persi ularni to'xtatib qoladi. Ammo Persi alaloqibat Anakluzmos (ruchka) yordamida uning boshini olishga muvaffaq bo'ladi. Shuningdek, Persi va uning do'stlari mifologiyadagi singari Prokrustning changaliga tushadilar. "Krustining alvasti karavotlari" magazini xo'jayini bo'lgan Prokrustni ham o'ldirgach, uning yondaftarchasidan DOA ovoz yozish studiyasining adresini topadi, o'sha yerda O'liklar saltanatiga olib boradigan yo'l ko'rsatilgan edi. Shu tariqa miflardagi voqea va qahramonlar zamonaviy voqelikka ko'chira boriladi.

Pentalogiyaning bosh qahramoni nomi pastish yo'li bilan mifologik qahramon Perseydan olingan. Persey yunon mifologiyasiga ko'ra Zevs va Danayaning o'g'lidir. U haqda Ovidiyning "Metamorfozalar" asarida batafsil yozib qoldirilgan. Pentalogiya Persi Jeksonning onasi ham o'z o'g'liga o'sha qahramon sharafiga Persi deb nom beradi. Chunki Persey sarguzashtlari yaxshilik bilan tugaydi. Uzoq davom etgan sarguzashtlardan so'ng u o'z yurtiga qaytib keladi. Ammo Rik Riordan o'z qahramonini Poseydonning o'g'li deb taqin qiladi. Ammo bu yerda ham baribir qadim mifologiya bilan bog'liqlik bor. Chunki mifda hikoya qilinishicha, kohin Argos humkdori Akrisiyning hayoti nevarasi – Danayaning o'g'li qo'lida yakun topishini bashorat qiladi. Shuning uchun Akrisiy qizini yer ostiga bекitib qo'yadi. Ammo Danaya oltin yomg'ir shaklida yotog'iga kirib kelgan Zevsdan farzand ko'radi va yillar o'tib, bola ulg'aygach buni bilib qolgan Akrisiy qizi va nevarasini qutiga solib dengizga otadi. Danaya va Persey tasodif bilan qutulib qoladilar. Rik Riordan Persining Poseydonning bolasi deyish orqali uning o'sha dengizdagi g'ayriixtiyoriy sayohatini nazarda tutadi. Persi ham Persey singari juda qiziqarli va xavfli sarguzashtlarni boshdan kechiradi.

Pastish Persi bilan bog'liq deyarli barcha voqealaru epizodlarda namoyon bo'ladi. Masalan, pentalogiyaning birinchi romani boshidayoq Nensi Bobofit Persi va uning eng yaqin o'rtog'i Grouverni mazax qila boshlaydi. Nensi Grouverning ustida sendvich bo'laklarini otib, ularning ustidan kuladi. Persi bo'lsa o'rtog'i tufayli Nensi bilan it-mushuk bo'lib urushib ketadi.

Rik Riordaning "Chaqqoq o'g'risi" romanida Persining otasi bir kuni Atlantika dengizi orqali qayoqqadir yo'l oladi va shu-shu qaytib kelmaydi. Onasining aytishicha, Persining otasi halok bo'lmagan, balki dengizda g'oyib bo'lgan. Shu tariqa Rik Riordan Persining otasini tayin etishda Zevs syujetidani Poseydon syujetiga o'tadi. Otasi okeanda g'oyib bo'lganligi Persining dengiz xudosi Poseydonning o'g'li ekanligini asoslashga xizmat qiladi. Persining o'zi bilmagan holda Nensini joyiga o'tqazib qo'yish uchun fontanni yordamga chaqirishi ham tasodif emas, bu uning dengizlar hukmdorining o'g'li ekanini bilan bog'liq.

**Xulosa va takliflar.** Adib yunon miflaridan pastish sifatida foydalanar ekan, amerikalik bolalar hayotidagi muammolarni kuchli psixolog singari nozik va chuqur idrok etadi. Qonuniylashtirilagan munosabatlardan dunyoga kelgan Persi o'g'ay otaning zug'umi ostida yashaydi. Uni maktab-internatga yuboradilar, ammo Persi o'z uyini, onasini, onasining mehrli munosabatini qattiq sog'inadi. Asar magik voqealarga boy, yumoristik ruhda bo'lishiga qaramasdan, unda bolaning ichki iztiroblari ham qalamga olingan. Aslida miflar bilan bog'liq voqealarning boshlanishiga aynan Persining qalbidan kechgan iztiroblar sabab bo'ladi. Masalan, Persi onasidan uzoqda, uyidan uzoqda maktab-internatda yashashdan siqiladi. Onasining yonida, o'z uyida yashash uchun u hatto o'gay otaning zug'umlariga chidashga, u bilan kelishib yashashga ham tayyor: "I wanted to be with my mom in our little apartment on the Upper East Side, even if I had to go to public school and put up with my obnoxious stepfather and his stupid poker parties".

“Judayam uyga ketgim kelmoqda edi. Hatto bepul oddiy o‘rta maktabda o‘qishga to‘g‘ri kelsa ham, men Verxniy Ist-Sayddagi mo‘jazgina kvartiramizda onam bilan yashashni xohlar edim. Hatto menga umuman yoqmaydigan o‘gay otam bilan kelishib yashashga, uning tun bo‘yi qartavozlik qilib, ahmoqlarcha poker o‘yiniga berilishiga chidashga ham rozi edim”.

Rik Riordanning qahramonlari antik miqlar va zamonaviy kitobxonni uzviy bog‘lab turuvchi personajlardir. Adibning qahramonlari butunlay yangi zamon kishilari, ularning dunyoqarashi, borliqqa munosabati yunon qahramonlarinikidan keskin farq qiladi. Ammo ular yunon qahramonlari kurashini davom ettiradilar. Bu, birinchidan ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi kurash hech qachon tugamasligi, mohiyati o‘zgarmasligidan dalolat. Ikkinchi tarafdan esa, kitobxonni o‘ziga tanish bo‘lgan afsona va rivoyatlarga yangicha nigoh bilan qarashga majbur etadi. Rik Riordan miqlarning mohiyati, motivlari, qahramonlari, epizod va detallaridan foydalangan holda butunlay yangi zamon romanlarini yaratdi, qadimiy miqlaridan o‘quvchini 21-asr muammolaridan ogoh etishda pastish o‘laroq foydalandi.

#### ADABIYOTLAR

1. Хажиева Ф. Америка постмодерн адабиётда постмодерн роман поэтикаси (Ж.Парини, М.Каннинг ва Л.Лалами асарлари мсиолида) // филол.фанл.доктори (DSc) ... диссертация . – Бухоро, 2022. – 159-160-бетлар.
2. Khajieva F. Theoretical aspects of the language learned (Stylistics) Ўқувқўлланма – Бухоро: Дурдона, 2020. 190 p.
3. Фрейд З. Санъаткор ва тахайюл // “Тафаккур”, 2023 йил, 3-сон.
4. Хазагеров Г. Основы теории литературы. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2009. – 317 с.
5. Кун Н. Легенды и мифы древней Греции. – Москва, Государственное учебно-педагогическое издательство министерства просвещения РСФСР, 1954. – Стр 101-111.
6. Rick Riordan. Percy Jackson and the Lightning Thief. PuffinBooks. 2005. P.17